FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 7 - aprel 120-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

Yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda)* qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 3-son, 23-modda; 2017-y., 36-son, 958-modda)* qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, Quvasoy shahar YFUK direktori I.Karimovning 2022-yil 28-fevral kunidagi 4P-204 “Farg‘ona halqasi-Sufon” avtomobil yo‘lining 5,5 km oralig‘ida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” va “Ehtiyot bo‘ling gaz quvuri” yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida shahar hokimligining qaror loyihasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 36-sonli aloqa xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quvasoy shahar YFUK direktori I.Karimovning 2022-yil 28-fevral kungi 4 P-204 “Farg‘ona halqasi-Sufon” avtomobil yo‘lining 5,5 km oralig‘ida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” va “Ehtiyot bo‘ling gaz quvuri” yo‘l belgisini o‘rnatish maqsadida shahar hokimligining qaror loyihasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 36-sonli aloqa xati qanoatlantirilsin.

2. 4 P-204 “Farg‘ona halqasi-Sufon” avtomobil yo‘lining 5,5 km oralig‘ida yo‘l xarakati ishtirokchilarini harakatlanishini tartibga solish maqsadida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” va “Ehtiyot bo‘ling gaz quvuri” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. “Quvasoy yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi (Karimov)ga ushbu yo‘l

belgilarini o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Quvasoy shahar IIB YHXG (Mamajonov)ga transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun ushbu yo‘l belgilariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar hokimligi Axborot xizmati Z.Abdullajonov, “Isfayram” ro‘znomasi muharriri O‘.Karimovalarga shahar hokimligining “Isfayram” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsinlar.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Tursunbayev zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Shahar hokimi **Z.K.To'rakulov**